



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

KASBIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING TARIXIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Ismoilova Iroda Ismoil qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada raqamlashtirish sharoitida o'zgarishlarga moslasha oladigan kompetent mutaxassislarni tayyorlash zaruratining dolzarbligi, maxsus pedagogika sohasida kadrlarga ehtiyojning ortib borishi, ta'lim muhitining rivojlanishi va korreksion yordam ko'rsatishning yangi shakllari paydo bo'layotgani, o'z navbatida yosh professional logopedlarni tayyorlashning muhimligi va dolzarbligi tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati va shakllanish bosqichlari mahalliy va xorij olimlarining tadqiqotlarida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, kompetensiya, implementatsiya, ta'lim, tarbiya, logoped, nutq, rivojlanish, mahorat, rivojlanish, raqamlashtirish, kompetentlik.

ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ КОНЦЕПЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Исмоилова Ирода Исмоил кизи

Международный химический университет в Ташкенте, преподаватель

Аннотация

В статье анализируется актуальность необходимости подготовки компетентных специалистов, способных адаптироваться к изменениям в условиях цифровизации, растущая потребность в кадрах в области специальной педагогики, развитие образовательной среды и появление новых форм коррекционной помощи, а также важность и значимость подготовки молодых профессиональных логопедов. В работах отечественных и зарубежных ученых изучены сущность и этапы формирования концепции каспийской компетентности.

Ключевые слова: молодежь, компетентность, реализация, образование, воспитание, логопед, речь, развитие, навык, развитие, цифровизация, компетентность.

STAGES OF THE HISTORICAL FORMATION OF THE CONCEPT OF PROFESSIONAL COMPETENCE

Ismoilova Iroda Ismoil qizi

Tashkent International University Kimyo, Lecturer

Abstract

This article analyzes the relevance of training competent specialists capable of adapting to changes in the digital environment, the growing need for special education personnel, the development of the educational environment, and the emergence of new forms of correctional assistance, as well as the importance and significance of training young professional speech therapists. The works of domestic and international scholars have examined the essence and stages of development of the concept of Caspian competence.

Keywords: youth, competence, implementation, education, upbringing, speech therapist, speech, development, skill, development, digitalization, competence.

Zamonaviy davrda pedagogika, xususan maxsus pedagogika sohasida mutaxassis kadrlarga ehtiyoj va zaruriyat oshib borayotganligi bo'lajak logopedlarning ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlashni taqozo etmoqda. Nutqiy buzilishlarga ega bo'lgan bolalar sonining ta'lim muassasalarida ortib borayotgani, shuningdek, raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi va korreksion yordam ko'rsatishning yangi shakllarining paydo bo'layotgani munosabati bilan bo'lajak logopedlarning kasbiy mahorat darajasini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Bo'lajak logopedlarning professionallik darajasi nafaqat bolalarning nutqiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiylashuv jarayonidagi muvaffaqiyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, nutqiy buzilishlarning turli shakllarini tashxislash va korrektsiyalash amaliyotiga doir ilmiy-pedagogik yondashuvlarning kengayib borishi mustaqil innovatsion faoliyatni namoyon qila oladigan, shuningdek, raqamlashtirish sharoitida o'zgarishlarga moslasha oladigan kompetent mutaxassislarni tayyorlash zaruratini dolzarblashtirmoqda. Bunday natijalarga ta'lim natijasining sifatiga alohida e'tibor qaratgan holda kompetentlik yondashuvini qo'llash orqali erishish mumkin bo'ladi.

“Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo'lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo'nalishlarida qo'llaniladi. Kompetensiya turli sohalar mutaxassislari faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo'lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to'liq mos tarzda to'g'ri boshqarish asosida uning samaradorligi so'zsiz ta'minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat muomalasini qo'yilgan maqsad va samaradorlikka yo'naltirish bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra, konkret xodim kompetensiyasi o'z faoliyati va o'z shaxsiy resurslarini samaradorlikka yo'naltira olish qobiliyati bilan hamohangdir.

Kompetensiyaga asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvining asoschisi sifatida Devid Makklelland nomini qayd etish zarur. Olim ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o'rgangan bo'lib, ishlab chiqarishda mutaxassis motivatsiyasini ishlab chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi. Olimning fikriga ko'ra, aynan iqtisodiy keskin rivojlanish va o'sish kadr kompetensiyasi masalasi zimmasidagi bo'lib, biror bir iqtisodiy g'oya o'z o'zidan effektiv bo'lib qolmaydi, balki mana shu g'oyani samarali qiluvchi kadrlar va ular kompetensiyasi mavjud bo'lishi lozim, kadrlar kompetensiyasini to'g'ri va maqsadga muvofiq shakllantira olgan kompaniyalargina samarador bo'ladi. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining amaliyotga implementatsiyasi bilan uzviy birlashtirilgan innovatsion ta'lim, fanlararo ta'lim, biznes boshqaruv ta'limi va h.k.lar kabi talablar birinchi o'ringa chiqadi.”[1]

Bu o'rinda, «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining mazmun-mohiyati, etimologik asosini tahlil qilinsa, ular ularning o'ziga xosligi ayon bo'ladi. Xususan, tadqiqotchilar fikricha, “kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan “kompetentlik” talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida”[2] yuzaga chiqadi.

Mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlarida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari L. T. Ahmedova, G. Bakiyeva, J. Jalolov, K. Qorayeva, G. Mahkamova, K. J. Riskulova, F. Saidova, A. Sattorov, U. X. Hoshimov, D. Hoshimovalar tomonidan

o'rganilganligi ayon bo'ldi. O'z navbatida, kasbiy kompetentlik tushunchasiga e'tibor qaratilsa, tadqiqotchi H. Xakimjonovanning fikricha, "kasbiy kompetentlik o'z faoliyati doirasida yuqori darajani egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini mustaqil loyihalash, odatiy kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z faoliyati natijalarini baholash, mutaxassisligi va lavozim vazifalari doirasida yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatidir". Demak, kompetentlik tushunchasi vaziyatli yondashuv asosida quriladi, jumladan, kasbiy kompetentlik mazmunining jihatlari: muammoli-amaliy, ya'ni vaziyatni tan olish va tushunishning adekvatligi, maqsadlar, vazifalar va semantik me'yorlarni adekvat belgilash va samarali amalga oshirish – vaziyatni yanada umumiy madaniy kontekst bilan adekvat tushunish; moddiy – vaziyatni, uning ma'nosini, maqsadlarini, vazifalarini va me'yorlarini muhim qadriyatlar nuqtayi nazaridan adekvat baholash qobiliyati" [3] hisoblanadi.

Yuqoridagi "kompetentlik", "kompetensiya" hamda "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mazmuniga oid tahlillardan kelib chiqqan holda, me'riy-huquqiy hujjatlarda berilgan "kasbiy kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati" [4] ekanligini tushunish mumkin bo'ladi.

Bo'lajak logopedlardagi kasbiy kompetentlikning shakllangan bo'lishi bolalarda nutqiy rivojlantirishnigina emas, "mohiyatan tilning qonun-qoidalari bilan bog'liq intellektual (aqliy) rivojlanishini ham o'zida mujassamlashtiradi. M.P. Tselikova bu haqda shunday fikrlarni ilgari suradi: «Intellektual rivojlanish bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishidagina emas, balki bolaning nazariy tafakkurini kamol toptirishdan, individual (mental) aqliy tajribasini boyitishdan, umumo'quv kompetensiyalarini shakllatirishdan ham iborat».[5]

Tarixiy nuqtayi nazardan o'rganilganda, ta'lim jarayoniga "kompetentlik tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi:

Birinchi bosqichda (1960–1970 yillar) — ilmiy doiralar va muomalaga «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo'llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor "kompetensiya" atamasi 1965 yilda Massachusetts universiteti o'qituvchisi N. Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu so'zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo'lib, aslida bu so'z "kelishuv", "kelishuvchanlik", "biror bir narsaga mos kelish", "mos bo'lish" ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so'z ko'proq "faoliyat olib borishning universal, ya'ni hamma uchun mos bo'lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini" anglatadi. Mazkur kompetensiyalar turli mutaxassisliklar doirasidagi dolzarb, yechilishi zarur vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi. Naum Xomskiy (inglizchasi), o'zi lingvist olim va psixolog bo'lganligi uchun, "Sintaktik strukturalar" kitobida bu istilohni til borasidagi intuitiv bilim sifatida talqin qiladi. Bu intuitivlik individga ona tilini o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi va to'g'ri jummalarni noto'g'ri jummalardan ajratish imkoniyatini yaratadi. Binobarin, N. Xomskiy tasnifida "kompetensiya" tilga nisbat berilgan xususiyatlar majmui bo'lib, tilning lingvistik mohiyatini anglash uchun zarur bo'lgan individ xislatlari majmuini anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (1970–1990 yillar) "kompetensiya" istilohining qo'llanilish doirasi keskin o'sadi, mazkur so'z maxsus istilohga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglata boshlaydi hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo'llaniladi. 1984 yili J. Ravenning (inglizchasi) «Competence in modern society: Its Identification, Development and Release» kitobi nashr bo'ladi. J. Raven o'ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtayi nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo'yadi va effektivlikni ta'minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko'rsatib beradi va ularni "motivatsion qobiliyat" deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, 1988 yilda Boloniya universitetning 900 yilligi nishonlash tadbirlarida Yevropaning 80 ta universiteti rektorlari Magna Charta Universitarum (Universitetlarning buyuk

Xartiyasi) hujjatiga imzo qo'yishdi. Bu hodisa Yevropa ta'lim tizimi tarixidagi "Boloniya jarayoni" deb nomlangan eng yirik loyihaning boshlanishini bo'ldi. Keyinchalik Yevropada yaxlit va hamma uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi "Boloniya deklaratsiyasi" 19 iyun 1999 yilda imzolandi va uning maqsadi oliy ta'limning Yevropa mamlakatlariaro yagona va yaxlit makonini yaratishdan iborat qilib belgilandi. Kompetensiya nuqtayi nazaridan esa, Boloniya jarayoni davomida Yevropa mehnat bozorlarida ish beruvchilar tomonidan an'anaviy "bilim" paradigmasi "faoliyat", ya'ni "kompetensiya" paradigmasi bilan to'ldirildi, buning natijasida ta'lim modellarida kadr tayyorlashning maqsadi mutaxassisning kvalimetrik talablari miqyosida "kompetensiya" tushunchasini eng muhim xususiyatlardan biri darajasiga ko'tardi.

Uchinchi bosqichda (1990–2001 yillar) butun dunyo, MDH da, xususan Rossiyada "Boloniya deklaratsiyasi" ijro va ta'lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta'lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko'rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan kasbiy "kompetentlik" masalasi qo'yila boshlandi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A. K. Markova, Ye. F. Zeyer, A. V. Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

Nazariy jihatdan, kompetensiya — bu ma'lum bir sohada samarali ishlash uchun zarur bo'lgan va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shaxsning turli layoqatlari va xususiyatlarining yig'indisidir. Kompetensiya natijadorlikni ta'minlaydigan algoritmning inson imkoniyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kompetensiya — insonning mutaxassis sifatidagi maqsadga yo'naltirilgan va uning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan harakatlari, faoliyatidir. Insonning bilish faoliyati natijalarini tizimlashtirish, uning tushuncha va g'oyalar ko'rinishida mavjud bo'lgan bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiya faqat amalda aniqlanadi. Umuman olganda, kompetensiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarining hosilasidir. Shuning uchun bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiyalar amaliy vazifani amalga oshirish imkoniyatlariga to'g'ri keladi.

Umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar mavjuddir. Umummadaniy kompetensiyalarga instrumental, shaxslararo, tizimli kompetensiyalar kiradi. Instrumental kompetensiyalar o'z ichiga: a) kognitiv qobiliyat, ya'ni har xil sohada asosiy bilim, g'oya va mulohazalarni tushunish va qo'llash qobiliyati; b) uslubiy qobiliyat, ya'ni atrof olamni tushunish va boshqarish, vaqtni tashkillashtirish, o'qitish strategiyasini olg'a surish, masalalarni qabul qilish va hal etish, asosiy umumilmiy usullarni bilish va ularni qo'llash, tashkillashtirish va rejalashtirish qobiliyati, axborot boshqaruvi ko'nikmalarini va boshqalar.

Tizimli kompetensiyaga – yaxlitlik qismlarini bir-biri bilan qanday bog'liqligini anglash va tizimdagi tarkibiy qismlarining har birining o'rnini, tizimni takomillashtirish va yangi tizimlarni qurish uchun o'zgarishlarini rejalashtirish qobiliyatini anglashga imkon beradigan tushunish, munosabat va bilimlarning yig'indisidir.

Kasbiy kompetensiya — ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsga qaratilgan standartlashtirilgan talablardir.

Kompetentlikga asoslangan yondashuv davlat, jamiyat va insonning o'z manfaati uchun hayotning muhim sohalarida muvaffaqiyatli ishlash uchun bilim va amaliy faoliyat usullarini kompleks o'zlashtirishga qaratilgan. Kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta'lim nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, talabaning nazariy bilimlari va uni amaliy qo'llash o'rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir.

Shuning uchun zamonaviy o'quv jarayoni amaliyotda qo'llanilishi qiyin bo'lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilishga namoyish etish, shuningdek o'quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o'zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lishi kerak." [1]

Kompetentlik mazmunini umumlashtirgan holda, raqamlashtirish sharoitida bo'lajak

mutaxassislar, xususan, bo'lajak logopedlar "kompetentligini shakllantirishning zaruriy xususiyati an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limning integratsiyalashuvi hisoblanadi, chunki u bir tomondan insonparvarlikka qaratilsa, boshqa tomondan esa ta'limning pragmatik maqsadlariga erishish imkoniyatlarini asoslashni taklif etadi. Ko'rib chiqilayotgan konsepsiya ikkita ommaviy qoidani o'z ichiga oladi, ular, bir biriga zid bo'lgan va kompetentli yondashuvni talab qiladi. O'z o'zini rivojlantiruvchi, o'z o'zini faollashtiruvchi, "to'liq faoliyat yurituvchi shaxs" g'oyasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanadi, u o'zining asosiy ehtiyojlariga va tashqi dunyo qadriyatlariga yo'naltiriladi. Aksincha, kompetentli yondashuvning xususiyatlari quyidagilardan iborat: amaliyotga yo'naltirilganlik; fanlararolik; fandan tashqarilik; tizimlilik; ijtimoiylik; foydalanish motivatsiyasi; integratsiya. Oxirgi tavsif bunday ko'nikma va qobiliyatlarni ishlab chiqarishda yuzaga keladigan nostandart vazifalarni hal qilish kabi kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar tarkibiga kirishini; axborotni mustaqil ravishda olish; yangi mehnat sharoitlariga moslashish; jamoada ishlash; muvaffaqiyatga erishishni nazarda tutadi. Kompetentli yondashuvning o'ziga xosligi afzalliklariga qaramay ta'lim tizimiga joriy etish istiqbollari bo'yicha olimlar orasida tushunarli mazmun va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi". [6]

A.A. Verbitskiyning "kompetentli yondashuvni joriy etish nafaqat ta'limning maqsadlari, mezonlarini belgilash va unga erishish darajasini diagnostika qilish mumkin bo'lgan maqsadli-natijali asosini o'zgartirishni ko'rsatadi, balki boshqa maqsadlar, tegishli shakllar, metodlar va vositalar mazmunini tanlash mezonlari, ta'lim sohasi va unda o'qituvchi va talabalarining faoliyatini o'zgartirgan holda ta'lim turini o'zgartiradi. Bu muallif o'z ishlarida chuqur madaniy an'analar va ta'lim tizimi nazariyasi va amaliyotidagi yutuqlar hamda turli innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi uzviylik zarurligi g'oyasini ilgari suradi. A.A. Verbitskiy kompetentli ta'limga o'tish organik ravishda mahalliy an'analarni, ta'limning eng yaxshi modellarini va bir vaqtning o'zida kompetentli yondashuv mohiyatini hisobga olgan holda texnologik xususiyatlarni o'z ichiga olgan biror bir rivojlangan psixologik-pedagogik nazariyaga tayanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi omillar tufayli aralash ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirish ushbu mezonlarning barcha jihatlariga javob beradi. Aralash ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirish kasb ta'limida ham keng tarqalmoqda. Ular texnik, gumanitar va ijodiy oliy ta'lim muassasalari sharoitida - muhandislar, fiziklar, kimyogarlar, matematika o'qituvchilarini tayyorlashda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi. Xalqaro huquqshunoslar, xalqaro xususiy huquq va xalqaro savdo huquqi/tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish sohasiga ixtisoslashgan nofilologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining aralash ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirish vazifalariga nisbatan ham bu yo'nalish muhim hisoblanadi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini o'z ichiga oladi". [6]

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda tahlili raqamlashtirish sharoitida bo'lajak logopedlar kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasini e'tiborga olgan holda to'liq talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 466-sonli Qaroriga 1-ilova.
2. Qodirova, M. T. Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogik mazmuniga doir qarashlar / M. T. Qodirova. — Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2020. — № 43

(333). — S. 343-345. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450>

3. Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M. va boshq. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. — T.: «Fan va texnologiya», 2013, - 128 bet. 9-bet.

4. Xakimjonova H. Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — T., 2024. 11-bet.

5. Tajbenova S. Kompetensiya va kompetentlik muammolari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022-yil №12). 250-bet. Elektron manba: <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/2461/2177>

6. Ismoilova Z., Ergasheva G. Aralash ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirish. — Informatika i inzhenernye texnologii. — 2023. — № 2. — B. 547-50.